

FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR TRANSFORMATSIYASIDA VARIATIVLIK TUSHUNCHASI

Karimboyeva Nafosat Yunus qizi

UrDU 2-bosqich magistratura talabasi.

E-mail: nafosatkarimboyeva@gmail.com

Ilmiy rahbar: Professor **Mamatov E.A.**

Annotation: This article highlights about the problem of variability of phraseological units in French and its importance in the formation of transformation of phraseological units.

Keywords: variation, semantic variation, formal structural change, usual variant, occasional variant, individual author's transformations of phraseological units.

Аннотация: В данной статье говорится о проблеме вариативности фразеологизмов во французском языке и ее значении в формировании трансформации фразеологизмов.

Ключевые слова: вариантность, семантическое варьирование, формально-структурных изменение, узуальный вариант, окказиональный вариант, индивидуально-авторские трансформации фразеологических единиц.

Annotatsiya: Ushbu maqolada fransuz tilidagi frazeologik birliklarning o'zgaruvchanligi muammosi va uning frazeologik birliklarning transformatsiyasini shakllantirishdagi ahamiyati yoritilgan.

Tayanch so'zlar: variatsiya, semantik variatsiya, formal struktura o'zgarishi, odatiy variant, okkazial variant, frazeologik birliklarning alohida mualliflik transformatsiyalari.

Badiiy muloqotda frazeologik birliklar transformatsiyasi pragmatik o'zgartirishlarning belgilaridan biri hisoblanib, u frazeologizmlarning tuzilishi va ma'nosining o'ziga xos xususiyatlari sababli ma'nolarning ayrim nozik farqlarini ifodalash qobiliyatlariga asoslanadi. Ushbu birliklarning pragmatik hodisasi boshlang'ich frazeologik birlik (uning prototipi) bilan o'zgartirilgan, yangi kommunikativ mazmun bilan "to'ldirilgan" frazeologik birlik o'rtasida bir xil ma'nodagi muvofiqlikning yo'qligi bilan asoslanadi.

Fransuz tilidagi frazeologizmlarning mualliflik transformatsiyasi an'anaviy tarzda tilshunos-tadqiqotchilarning jiddiy e'tiborini tortmoqda. Chunki frazeologik birliklar "qotib qomagan" hosilalar bo'lib, nutqda xilma-xil individual o'zgarishlarga qobillikni namoyon qiladi. Adabiy tilda hammaga ma'lum bo'lgan frazeologik birliklar variatsiyalarining nutqda paydo bo'lishi mutlaqo tabiiydir, chunki tilda mavjud tizim, umumiy ma'noni ifodalalar ekan, siyqasi chiqmagan, yangi mazmuni ifodalash yo'lida qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, bu shunga olib keladiki, umumiy tildan foydalanuvchilar uning qayta ishlanmagan boylklari bilan qoniqa olmaydilar [Sh.Balli, 1961; 280; Pavlov, 1970; 90]. Frazeologik birliklarni qayta o'zgartirish, – bunday qiyinchiliklarni yengib o'tishning usullaridan biri sifatida, – o'z semantikasini amalga oshirar ekan, o'zining kommunikativ-pragmatik potensiyasini shakllantiradi.

Umumtil frazeologik birliklari variantlarini hamda frazeologik birliklarning individual-mualliflik transformatsiyalarini ajratib ko'rsatishda va chegaralashda ma'lum bir qiyinchiliklar

yuzaga keladi. Bunda , albatta , variativlik hodisasini chuqur o`rganish alohida ahamiyat kasb etadi.

Frazeologizmlarning nutqda o`zgarishiga “variativlilik” terminini qo`llash maqsadga muvofiqdir. Frazeologik birliklarning variativligi – bu frazeologiya tizimligining namoyon bo`lishi, umuman tilning frazeologik tarkibining, xususan, fransuz tili tarkibining takomillashishi va rivojlanishining yo`llaridan biridir. Frazeologizmlarning variativligi badiiy kommunikatsiyada muallifning pragmatik yo`l-yo`riqlarini amalga oshirishdagi, bu bilan aniq bir mulohazaning pragmatik yo`naltirilganligini ifodalab, pragmatik samaraga erishishdagi ijodiy usullaridan biri sifatida qaraladi.

“Variant”, “variatsiyalash”, “variativlilik”, “variantlilik” terminlarini bir xil ma`noda ishlatish uchun bu tushunchalarni aniqlashtirish maqsadga muvofiq bo`ladi. “Variant” tushunchasi tilshunoslikda juda keng tadqiq qilinadi. U asosan ma`lum bir tilning formal va mazmuniy rang-barangligini tavsiflash uchun xizmat qiladi.

Frazeologik birliklarning okkazonal variantlari deganda, boshlang`ich frazeologik birliklarning ham semantikasiga dahl qiluvchi, shu bilan birga nafaqat tilning an`anaviy variantlariga tegishli nomuntazam struktur-semantik o`zgarishlar, balki badiiy kommunikatsiyaning pragmatik mazmunini ochib berishda frazeologik birliklarni qayta o`zgartirishning eng samarali usullari sifatidagi mualliflik qayta o`zgartirishlariga tegishli bo`lgan o`zgarishlar tushuniladi.

Qayta tiklanishda frazeologik birliklarning turli variantlarni hosil qilish xususiyati variativlilik deb ataladi. “Variativlilik” va “variantlilik” terminlarini biz bir xil ma`noda talqin qilmaymiz. Variativlilik – ancha keng plandagi tushuncha bo`lib, frazeologik birliklarning ham odatdagi (uzual), ham nutqiy (okkazonal) o`zgarishlarini o`z ichiga oladi. Variantlilik til tizimining hodisasidir, garchi tanlov kontekstning xarakteri bilan belgilansa-da, u kontekstdan kelib chiqmaydi. Variantlilik deganda frazeologizmlar komponent tarkibining faqat odatdagi o`zgarishi (modifikatsiyasi) tushuniladi. Masalan: *dormir (faire) la grasse matinée*” “uxlab qolmoq, allamahalgacha uxlab yotmoq”; “*cracher au bassin (au bassinnet)*” “(ziqnalik qilmasdan) pul sarflamoq, sahiylik qilmoq” va boshqalar. Variantlilikning mavjudlik faktining o`zi, shubhasiz, tilshunoslar tomonidan tan olinadi, ammo uning tilning turli jihatlarini xarakterlovchi ko`rinishlari va shakllari, struktur o`ziga xos xususiyatlari va til tizimida ishlashining shartlariga bog`liq ravishda variantlilikning tiplaridagi farqlar turlicha baholanadi.

“Variantlilik muammosini o`rganishning murakkabligi, - deb yozgan edi G. Glison, - lingvistik o`zgarish jarayonining murakkabligi bilan bog`liq, u yagona aktdan emas, balki ozmi-ko`pmi mustaqil kechadigan mutlaqo har xil jarayonlarning birgalikdagi natijasidan iborat” [Glison, 1959; 381]. Biz til variatsiyasining o`tkinchi bo`lmagan xarakterini tan oluvchi tilshunoslarning fikrlariga to`liq qo`shilamiz, chunki busiz tilning o`zgarishi va rivojini tasavvur qilib bo`lmaydi [Kramorenko G.I., Nazaryan A.G., Sokolova G.G., Fedosov I.A. va boshqalar].

Variatsiyalashuvning o`tkinchi bo`lmagan, rivojlanayotgan xarakterining yorqin isboti bo`lib frazeologizmlarning badiiy kommunikatsiyadagi transformatsiyalari xizmat qiladilar, ular mazkur tadqiqotda individual-mualliflik transformatsiyalari deb ataladilar. Til shaklidan chetga chiqishlar (og`ishlar) bilan xarakterlanadigan hamda mualliflarga ma`lum pragmatik samaraga erishish uchun, shu jumladan, kommunikatsiyaning ushbu turining pragmatik mazmuni ochish uchun vosita bo`lib xizmat qiladigan frazeologik birliklarning individual-mualliflik o`zgarishi variantlilikka kirmaydi. Frazeologik birliklarning individual-mualliflik transformatsiyasi – bu muallif nutqining subyektiv hodisasi, uning ijodiy aktining oqibatidir. Frazeologizmning nutqdagi

real qo'llanilishi uning komponentlaridan birining ma'nosini konkretlashtirishi va frazeologik birlikning ataylab mualliflik o'zgartirilishiga olib kelishi, komponent almashtirish uchun sharoit yaratishi mumkin. Masalan:

Je glose, en ce moment je le sais. C'est un aspect de la question qui doit être souligné. Un petit bourgeois peut aller au peuple **avec le cœur sur la main** : *dans son autre main*, il y a sa cervelle moins naïvement offerte. [Hervé Bazin , « La mort du petit cheval », p.228]

Voir le cœur sur la main iborasida odatda **sur la main** komponenti almashtiriladi, chunki aynan kontekstda konkretlashtiriladi (qiyoslang: **“avoir du cœur au ventre”** – **“être courageux”**). Komponentning bunday almashtirilishi shundan guvohlik beradiki, boshlang'ich shakl o'zida bitta tematik guruhning komponentlari, tilning amaliy qo'llanilish sharoitida amalga oshadigan sinonimlar, antonimlar bilan variatsiyalash imkoniyatini saqlashi bilan ahamiyatlidir. Shu bilan birga qaysidir yozuvchining asarida birinchi marta paydo bo'lgan transformatsiyalangan ko'p frazeologik birliklar, keyinchalik ushbu frazeologik birliklarning variantlari qatorida “qonunlashtiriladi”.

Bu faqat ularning umumxalq tilida qo'llanilishi sharoitidagina sodir bo'lishi mumkin, bu ko'pincha frazeologizmni muallif tomonidan qayta o'zgartirishining til normasiga yaqinligi bilan bog'liq bo'ladi. Masalan: rus tilidagi “кот наплакал” – “juda oz, arzimaydigan darajada oz, zig'irday” – морж наплакал; **avoir la couronne de fer** “**avoir mal à la tête**”. Teskarisi ham sodir bo'ladi, qayta o'zgartirilgan frazeologik birlik uning ma'nosini qo'llanilishdan uzoqlashtirish mumkin bo'lgan jihatlaridan biri hisobladi. Tilning rivojlanishi davomida ayrim variantlar yo'qolib ketishi ham mumkin, masalan, **chanter (entonner) le los** “*faire des compliments à qn*” varianti mavjud edi (*chanter les louanges à qn*). Individual-mualliflik transformatsiyalarining va umumxalq frazeologik birliklari variantlarining farqlarini katta qiyinchiliklarda aniqlashda faqat fransuz tilining tarixiy frazeologiyasigina to'g'ri javob berishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda variantlilik muammosiga ikkita yondashuv mavjud bo'lib, bular tor va keng yondashuvlardir. Variantlilikka tor yondashuvda variatsiyalashuv formal-struktur o'zgarishlar doirasi bilan cheklanib qoladi. Frazeologizmlarning variantligiga keng yondashuv til belgisining ham ifoda plani, ham mazmun plani sifatida mavjudligiga asoslanadi. Bunday yondashuvda frazeologizmning mazmun plani ozmi-ko'pmi o'zgarmaydigan ifoda planida tadqiq qilinadi. Frazeologik birliklarning odatdagi (uzual) hamda nutqiy (okkazional) variantlari mavjud. Nutqiy variantning odatdagi variantdan yagona farqi, nutqiy variantning leksikografik manbalarda qayd qilinmaganligi hisoblanadi. “Variant” tushunchasi lingvistikada juda keng tadqiq qilinadi. U asosan ma'lum tilning formal va mazmuniy rang-barangligini tavsiflash uchun xizmat qiladi. “Variativlilik” va “variantlilik” terminlarini biz bir xil ma'noda talqin qila olmaymiz. Variativlilik – ancha keng tushuncha bo'lib, frazeologik birliklarning ham odatdagi (uzual), ham nutqiy (okkazional) o'zgarishlarini o'z ichiga oladi. Garchi tanlov kontekstning xarakteri bilan belgilansa ham variantlilik til tizimining hodisasidir, u kontekstdan kelib chiqmaydi. Variantlilik deganda frazeologizmlar komponent tarkibining faqat odatdagi o'zgarishi tushuniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Балли Ш. Французская стилистика. Москва.1961.
2. Назарян А.Г. Фразеология современного французского языка. Москва.1987.

3. Соколова Г.Г. Фразеология французского языка (семантический аспект фразеологических единиц) // Учеб. пособие по спецкурсу. Москва.1986.
4. Sadullaeva N., Sapaeva D. Analysis of Eponyms in the Terminology of Dermatovenerology //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – С. 452-459.
5. Sadullaeva, N., & Bakhtiyorova, M. (2021). Reflection of Onomastic Principles in Naming. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 3001-3007.
6. Sadullaeva N., Burieva U. The Peculiarities of Incomplete Sentences in Modern English //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – С. 3008-3020.
7. Sadullaeva S., Arustamyan Y., Sadullaeva N. Shifting the assessment paradigm from knowledge to skills: Implementation of new appraisal procedures in EFL classes in Uzbekistan //International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering. – 2019. – Т. 9. – №. 1. – С. 4943-4952.
8. Arustamyan, Y., Siddikova, Y., Sadullaeva, N., Solieva, M., & Khasanova, N. (2020). Assessment of Educational Process and its Organization. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(S1), 573-578.
9. Nilufar S., Elvira A. GENDER SPECIFICITY OF PEDAGOGICAL DISCOURSE //INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS. – 2023. – Т. 3. – №. 08.05. – С. 187-190.
10. Gulnoza K., Sadullaeva N. LINGUISTIC FEATURES OF GLUTTONIC DISCOURSE.
11. Djafarova, Dildora, Yaxshiboyeva Nodira, and Abdullayeva Zulfiya. "Socio-Cultural Memory and Its Reflection In French Phraseology." Journal of Positive School Psychology (2022): 2883-2889.
12. Yaxshiboyeva, Nodira. "Reconstruction of coloristic expressions in erkin azam's" noise" and" pakana's love"." Конференции. 2021.
13. Ilhomovna, Djafarova Dildora, and Bobokalonov Odilshoh Ostonovich. "Interaction of Language Games in the Articulation of “Historical Memory” Within French and Uzbek Phraseology." American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769) 2.1 (2024): 348-354.
14. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and J. A. Yakubov. "Archaic Phraseological Units as Windows into “Historical Memory” in French and Uzbek Linguistic Traditions." American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157) 2.1 (2024): 163-169.
15. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and Yaxshiboyeva Nodira Ergashovna. "Contemporary Usage of Archaic Phraseological Units Expressing “Historical Memory” In Uzbek and French Languages." American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769) 2.2 (2024): 371-377.
16. Ilhomovna, Djafarova Dildora. "Phraseological Units Expressing" Memory"/" Mémoire" in Linguistics and their Analysis through Texts." Best Journal of Innovation in Science, Research and Development 2.11 (2023): 490-492.
17. Яхшибоева, Нодира. "Таржима жараёнида маданиятлараро мулоқотнинг социолингвистик хусусиятлари." Академические исследования в современной науке 2.17 (2023): 165-169.

18. Иногамова, Ф. М., and Н. Э. Яхшибоева. "Фразеологик маънонинг конвенциаллиги." Academic research in educational sciences 3.5 (2022): 1176-1182.
19. Яхшибоева, Н. (2023). Туристический дискурс как один из особых видов институционального дискурса. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(6), 879-884.
20. Яхшибоева, Нодира. "The role of tourism terminology in french." O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023,[1/4] (2023).
21. Hervé Bazin. Vipère au poing; La mort du petit cheval; Cri de la chouette. Moscou: Progrès. 1979.
22. Larousse dictionnaire essentiel du français contemporain. Paris, Larousse, 1992.